



ERGASHGAN QO‘SHMA GAPLARNING GRAMMATIK KATEGORIYALARINI TALQIN QILISH METODOLOGIYASI

Sevinch Usmonova Shahrizabz davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs talabalabasi
Surayyo Mirzayeva Shahrizabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Hozirgi o'zbek adabiy tilida eng katta muammoli vaziyatlarga duch keladigan mavzu: Qo'shma gaplarning ya'ni bog'langan va bog'lovchisiz qo'shma gaplarning bir-biridan farqi hamda ergashgan qo'shma gaplarning qismlarini joylashish tartibi va kategoriyalar tartibini tilshunos professor olimlar nigohida o'rganishga qaratilgan.

Ushbu maqolada ergashgan qo'shma gaplarning bog'lanish usullari hamda grammatik kategoriyalarining semantik va sintaktik mohiyati haqida fikr boradi.

Kalit so'zlari: Qo'shma gap, bog'langan qo'shma gap, grammatika, kategoriya, bog'lanish, sifatdosh, ravishdosh, tip.

Аннотация: Тема, стоящая перед самыми большими проблемными ситуациями в современном узбекском литературном языке: разница между союзами, то есть союзами и не союзами, и порядок размещения частей следующих союзов и порядок категорий, ставит перед собой цель профессор-лингвист. учиться глазами ученых.

В данной статье обсуждается семантическая и синтаксическая природа следующих союзов и грамматических категорий.

Ключевые слова: союз, союз, грамматика, категория, связь, прилагательное, наречие, тип.

Abstract: The topic facing the biggest problematic situations in the current Uzbek literary language: the difference between conjunctions, that is, conjunctions and non-conjunctions, and the order of placement of the parts of the following conjunctions and the order of categories linguist professor aims to learn from the eyes of scientists.

This article discusses the semantic and syntactic nature of the following conjunctions and grammatical categories.



Key words: Conjunction, conjunction, grammar, category, connection, adjective, adverb, type.

Darvoqe, qo‘shma gaplar, qismlarining o‘zaro birikish usuli va semantik munosabatiga ko‘ra uch xil bo‘ladi 1) bog‘langan qo‘shma gap 2) bog‘lovchisi qo‘shma gap 3) ergashgan qo‘shma gap.

Masalan gaplarni bir-biri bilan taqqoslab qiyoslasak. 1) O‘zingiz yaxshigina ekansiz, ammo husningizcha ko‘rkam emas. (Oybek). 2) Avvalo, shuni aytmoqligim kerakki, Mahd Alyo beginning rayilariga batamom qushilurmen (Oybek). 3) Shoh bolasiga yurt va spoh kerak, darvish bolasiga masjid xonaqoh kerak! (Oybek)

Yuqorida keltirilgan misollarning birinchisi bog‘langan qo‘shma gap bo‘lib uning qismlari esa zidlov bog‘lovchisi orqali birikkan. Ikkinchisi ergashgan gap bo‘lib uning qismlari aniqlov bog‘lovchisi orqali birikkan. Uchinchi gap bog‘lovchisiz bog‘langan qo‘shma gap bo‘lib, uning qismlari o‘zaro hech qanday bog‘lovchi vositasiz faqat ohang yordamida bog‘langan.

Qo‘shma gap turlaridan ergashgan qo‘shma gaplarga to‘xtaladigan bo‘lsak, juda katta muammoli masalalarga duch kelamiz. O‘zbek tilshunosligida ergashgan qo‘shma gaplar masalasining yoritilishiga katta hissa qo‘shgan olimlardan biri professor G‘.Abdurahmonov bo‘lib, o‘zining qator tadqiqotlari bilan o‘zbek tilshunosligida bu masalaning yoritilishini birinchilardan bo‘lib boshlab bergan deyishimiz mumkin. Olim o‘zining “Qo‘shma gap sintaksisi asoslari “ (1958) , “ Ergash gapli qo‘shma gaplar “ , kabi ishlarida ergash gap, uning qismlarini bog‘lovchi vositalar, turlari kabi masalalarini yoritgan, G‘. Abdurahmonov mazkur ishlarida bu bugungi kun tilshunosligida sodda gap deb qaratilayotgan gaplarni qo‘shma gap deb sodda gaplarni murakkablashtiruvchi vositalar sanalgan sifatdosh, ravishdosh o‘ramli gaplarni ham qo‘shma gap deb qaralishi kuzatiladi.

Ergashgan qo‘shma gap tarkibidagi qismlarning biri ikkinchisiga mazmunan, grammatik va intonatsiya jihatdan bog‘langan bo‘lib, uni aniqlash to‘ldirish kabi vazifalarni bajaradi. Shuning uchun ham qismlaridan biri tobe, ikkinchisi hokim sanaladi. Hokim qism bosh gap, tobelanib kelgan qism esa ergash gap deb yuritiladi. Masalan: Ularning orasida faqat marhum mavlono Jomiy o‘zbek pahlavoniga ofarin o‘qib uning yelkasini qoqadi



(Oybek) gapda “uning yelkasini qoqadi” – bosh gap. Ularning orasida faqat marhum mavlono Jomiy o‘zbek pahlovoni ofarin o‘qib ergash gap. Ergash gap bosh gapni sabab munosabatiga ko‘ra izohlagan.

Tilshunos olim G‘. Abdurahmonov ergash gapli qo‘shma gaplar qismlari tobe bog‘lovchilar yoki shu vazifadagi vositalar yordamida o‘zaro birikkan qo‘shma gaplar ekanligini, mazmun tomonidan esa bu xil qo‘shma gaplarning biri ikkinchisiga tobe bo‘lishini aytadi “ Bosh va ergash gap o‘zaro 1) o‘rinlashishi 2) maxsus fe‘l formasining qo‘llanilishi (turli grammatik vositalar bilan birikkan sifatdosh va ravishdosh 3) yordamchi so‘zlar orqali munosobatga kirishadi deydi. Xuddi shunga o‘xshash fikrni tilshunos olim Hamroyev shunday ta’kidlab o‘tadi, sodda gap tarkibidagi sifatdosh ravishdosh yoki shart fe‘li boshqargan birikmalar kengayib, alohida gap tashkil etadi.

Ergash gap ham xuddi sodda gap kabi nisbiy tugal fikr bildiradi, o‘zida predikativlikni ko‘rsatadi va maxsus ohanga ega bo‘ladi. Ergash gap eng muhimi stilistik kategoriya sifatida, bosh gapdagi biror bo‘lakni yoki butun bir bosh gapni izohlaydi, mazmunini to‘ldiradi va shu orqali bosh gapga biror bir tomondan aniqlik kiritadi.

Tilshunos olim G‘. Abdurahmonov ergash gaplarini logik kategoriya emas, grammatik kategoriya deb grammatik tushunishdan kelib chiqishini bu tomoyillar asosida belgilangan ergash gaplar ikki tomonlama klassifikatsiya qilish lozimligini aytadi bosh gapga bog‘lanish usuliga ko‘ra hamda mazmun va funksiyasiga ko‘ra Bosh gapga bog‘lanish usuliga ko‘ra ergash gaplarni uch turga bo‘ladi. Sintetik tip, analitik tip va analitik-sintetik tip.

G‘ Abdurahmonov ergashgan qo‘shma gaplarni o‘n to‘rt turga bo‘lib tasnif qiladi va har bir turni bog‘lovchi vazifalar, ularning mazmuni va vazifasiga ko‘ra ichki turlarga bo‘lib tadqiq qilinadi.

Masalan, G‘. Abdurahmonov aniqlovchi ergash gapni quyidagi to‘rt turga bo‘ladi. Umumlashtiruvchi aniqlovchi, qiyosiy aniqlovchi aniqlovchi – izoh, aniqlovchi, ergash gapning maxsus tipi.

Xulosa qilib aytganda professor G‘. Abdurahmonov ergash gapli qo‘shma gaplarni o‘rinlashishi va fe‘l shakllaridan biri vositasida birikishiga qarab tasnif qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar.

1. G'. Abdurahmonov. Qo'shma gap sintaksisi. Fan. 1964.
2. O'zbek tili grammatikasi. II tom. Sintaksis. – Toshkent: Fan, 1976 yil.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiyot tili(darslik).-Toshkent: Universitet, 2006.